



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

FILOLOGIK TADQIQOTLARNING YANGI BOSQICI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR

III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN MATERIALLARI

2025-yil, 21-OKTABR

BUXORO – 2025

ANJUMAN DASTURIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|--|
| 1. B.B. Ma'murov | - Buxoro davlat pedagogika instituti rektori, rais; |
| 2. Z.M. Muqimov | - Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, rais muovini; |
| 3. G.R. Akramova | - Ilmiy – tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i, a'zo; |
| 4. X.A. Xaitov | - Tillar fakulteti dekani, a'zo; |
| 6. U.S.Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 7. D.B.Axmedova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 8. G.B.Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.R.Mirxanova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.A.Saidova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 11. Y.U.Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 12. Sh.Sh.Nizomova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 13. N.H.Hojiyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 14. M.U.Usmonova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. N.A.Bafoyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. N.O. Avazova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 17. S.T. Latipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo |

ILMIY ANJUMANNING TASHKILIY QO'MITASI

- | | |
|--------------------|---|
| 1. M.M. Bafayev | - O'quv ishlari bo'yicha prorektor, rais; |
| 2. M.L. Umedjanova | - Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha birinchi prorektor, rais muovini; |
| 3. U.S. Amonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, a'zo; |
| 4. F.R.Rustamov | Tillar fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari |
| 5. L.F. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 6. M.Y. Ro'ziyeva | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası professori, a'zo; |
| 7. Sh.M. Istamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 8. M.B. Sharipova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 9. G.B. Rustamova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 10. R.R. Xalilova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, a'zo; |
| 11. M.U. Usmonova | O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 12. F.K. Nurova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası katta o'qituvchisi, a'zo; |
| 13. N.N. Mirjonov | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 14. M.Y. Latifova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 15. M.A. Tilavova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo; |
| 16. M.V. Jabborova | - O'zbek tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi, a'zo. |

To'plam O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrda "2025-yilda o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi 496-sonli buyrug'i rejasida belgilangan tadbirlarning bajarilishini ta'minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Buxoro davlat pedagogika institutida o'tkazilgan "Filologik tadqiqotlarning yangi bosqichi: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollar" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari asosida tuzildi.

Mas'ul muharrir:

G.B. Rustamova - filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Taqrizchilar:

D.S. O'rayeva - filologiya fanlari doktori, professor
F.S. Safarova - filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

“TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARIDAGI TARBIYA HAQIDA BERILGAN FIKRLARNING HAYOTDAGI AHAMIYATI

Murodova Farangiz Asliddin qizi,

Buxoro davlat pedagogika instituti 2-bosqich talabasi

Mirxanova Gulandom Rustamovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida ilgari surilgan tarbiyaviy g’oyalar mazmunan tahlil qilinadi hamda ularning bugungi jamiyat hayotidagi ahamiyati yoritiladi. Asarda bayon etilgan insonparvarlik, adolat, halollik, mehnatsevarlik, ilmga intilish kabi g’oyalar shaxs kamoloti va ma’naviy barkamollikka erishishning muhim omillari sifatida talqin etiladi. Maqolada ushbu fikrlarning zamonaviy ta’lim-tarbiya jarayonida qo’llanilish imkoniyatlari, ularning pedagogik va ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati tahlil etilgan.

Kalit so’zlar: tarbiya, jamiyat, inson, Abdulla Avloniy, jadidchilik, axloq.

Jadidchilik harakati yoki jadidizm XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyatga ega bo’lgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy jarayon hisoblanadi. XIX asrning 90-yillaridan O’rta Osiyoda tarqalgan. XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida birgina Turkistonda emas, balki dunyoda juda ko’p mustamlakalarda milliy uyg’onish harakati boshlanishga ulgurgan edi. Har bir jadid adiblari va namoyondalarining asarlarida millatni ozodlikka chorlash, inson erki va qadri, vatanga muhabbat tuyg’ulari aks etgan. Jadidlarning maqsadi ommani ma’rifatli va Turkistonni mustamlakachilikdan ozod qilishdan iborat edi. Jadidchilikning poydevori, tamal toshi usuli jadid edi. Chunki «yangi» ma’noni beruvchi «jadid» istilohi kelishining o’zi aynan yangi usuldagi maktablar bilan bog’liq. Biroq mustabid hukumat va mahalliy mutaassiblarning qarshiligiga qaramay, jadidlarning sa’y-harakatlari bilan usuli jadid maktablarining tarmog’i kengayib bordi. Jamiyat ma’naviyatini mustahkamlashda chinakam ma’rifat o’chog’iga aylangan yangi usul maktablari 1917-yil boshlariga kelib 92 tani tashkil etdi. Jadidlarning maslagi amalga oshishida keyingi asosiy o’rinni matbuot egallaydi. «Burung’i o’zbek vaqli matbuotining tarixi» maqolasida Abdulla Avloniy 1905-1917-yillar davomida o’zbek tilida 23 gazeta va 8 ta jurnal chop etilgani to’g’risida ma’lumotlar beradi. Ma’rifatparvar adib Turkistonda birinchilardan bo’lib, maktab o’quv dasturlariga geografiya, kimyo, handasa, fizika fanlarini kiritishga ta’sir ko’rsatdi, ta’limni hayotiy turmush bilan bog’lashga intildi, bir dars bilan boshqasi o’rtasida muayyan tanaffusni, bir sinfdan ikkinchi sinfga o’tishdagi imtihonni joriy etdi. 1904-yilda Avloniy Mirobodda usuli jadid maktabini ochdi. 1907-yilda esa o’z hovlisida “Shuhrat” gazetasini chiqara boshladi. Avloniy yozadiki, «Bizim Turkiston makotibi islomiyasinda avvaldan oxira qadar ta’lim olinajak kitoblari, “Sabot ul-ojizin”, “Fuzuliy”, “Navoiy” kabi she’r kitoblari oldigi jumlaning ma’lumidir. Bu kitoblarning aksariyati e’tiqod va amaliyoti islomga taalluq mushkul masalalardan iborat o’lg’onlaridan hamda asarlari forsiy tilda yozilg’onlari uchun yosh bolalarning onlaridan istifodalari bir narsa anlamog’lari imkon xorijinda edi. Ruhiiy tadqiqot natijalariga ko’ra, inson fe’l-atvorining 80 foizi u 5 yoshgacha bo’lgan davrda rivojlanib ulgurar ekan. Ayni shu paytda ota-onaning tarbiyadagi e’tibori, oilaviy muhitning sog’lomligi farzand kamolida katta ahamiyatga ega bo’ladi. Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrlari esa millat taqdiri farzandlarimiz qo’lida ekanligiga ishora qiladi. “Turkiy Guliston yoxud axloq”ning uchinchi nashrini 1967-yilida “O’qituvchi” nashriyoti amalga oshirdi. Bunda asarda uchragan diniy iboralar, Hadisdan olingan hikmatlar davr talabiga ko’ra tushirib qoldirilgan bo’lsa-da, bu asar o’zbek klassik pedagogikasining yorqin namunasi hisoblanadi. “Tarbiya

bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir”. Ma’naviyati qashshoq va loqayd insonlar bilan butun bir jamiyatni qurib, isloh qilib bo’lmaydi. Avloniyning ko’pgina asarlarida ham tarbiya motivi ustunlik qiladi. Axloqimiz binosining go’zal va chiroyli bo’lishiga tarbiyaning zo’r ta’siri bordir. Ba’zilar “tarbiyaning axloqqa ta’siri yo’q, insonlar asl yaratilishida qanday bo’lsalar, shunday o’sarlar, tabiat o’zgarmas” demishlar. Lekin so’z to’g’ri emasdur. Chunki tarbiyaning axloqqa ta’siri bordur. Shuni alohida qayd etish kerakki, XX asr boshlarida Turkiston madaniy hayotida yuz bergan eng muhim o’zgarishlardan biri bu maktab o’quv ishlari yuzasidan olib borilgan o’zgarishlar bo’ldi. Maktab ta’limi rivojlangandan so’ng tarbiyada ham ma’naviy va marifiy tomonlama o’zgarishlar bo’ldi. Negaki, haqiqiy ustoz, avvalo, har jihatdan mukammal bo’la olsagina, o’quvchiga ta’lim bera olishi mumkin. Abdulla Avloniyning muallimlarga qarata aytgan quyidagi so’zlari asarning maqsadini to’la izohlaydi: “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko’p zamonlardan beri taqdir kelgan, muallimlarning diqqatiga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g’ayratlik bo’lishiga sabab bo’ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so’ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog’liqdur. Ta’lim ila tarbiya orasida bir oz farq bo’lsa ham, ikkisi biridan ayrilmaydurgan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kapidur”. Insonning ma’naviy va ma’rifiy komillikka erishishi tarbiya orqali amalga oshadi. Jamiyat rivojlangan sayin tarbiyaning ham ustunligi oshib boraveradi. Xalqimizda “Bir bolaga yeti mahalla ota-ona” hikmatining ma’nosi ham tarbiyaning ahamiyatlilik darajasi qanchalik yuqori ekanligini anglatadi. Avloniy xulqlarni an’anaviy yaxshi va yomonga ajratar ekan, mulohazalarini Gippokrat, Platon, Aristotel, Sa’diy Sheroziy, Bedil fikrlari bilan dalillagan holda zamonaviylikni asosiy mezon qilib oldi. Abdulla Avloniy Vatan muhabbatini, uning uchun kurashmoqni eng yaxshi insoniy xulqlardan deb bildi. Abdulla Avloniy axloqiy-ta’limiy asarlari, darslik va o’quv qo’llanmalari orqali milliy uyg’onish adabiyotining rivojlanishiga katta hissasini qo’shdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Jo’rayev M. O’zbek ma’rifatparvarlari va ularning ta’lim-tarbiya haqidagi qarashlari. – Buxoro, 2015.
2. Mirzayev T. Sharq mutafakkirlarida inson va jamiyat konsepsiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
3. Qosimov B. Ma’naviyat yulduzlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
4. Sodiqov O. O’zbek adabiyoti tarixida axloqiy-ta’limiy g’oyalar. – Toshkent, 2012.
5. Xudoyberdiyeva M. Sharq mutafakkirlarining axloqiy-ta’limiy qarashlari. – Toshkent: O’qituvchi, 2001.